

ISSN: 2181-4058

DOI Journal 10.56017/2181-4058

JORAI

Journal of


RESEARCH

and

INNOVATIONS

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР | ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ

Volume I, Issue 6



IMFAKTOR
PAGES

JUNE | 2023

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-6

ТОШКЕНТ - 2023

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

№ 6 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4058-2023-6>

Бош муҳаррир:

Салимов А. – архитектура фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Кадиров К. – филология фанлари номзоди, доцент

Таҳририят аъзолари:

Омонов Қ. – филология фанлари доктори, профессор
Муҳибова У. – филология фанлари доктори, профессор
Каримов Б. – филология фанлари доктори, профессор
Рашидов Т. – санъатшунослик фанлари номзоди, доцент
Мухамедова Ф. – санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори
Тешабоев Ж. – санъатшунослик фанлари доктори, профессор
Эгамбердиев И. – техника фанлари доктори, профессор
Ташманов Е. – техника фанлари доктори, профессор
Салихова О. – техника фанлари номзоди, доценти
Закиров Х. – қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор
Гулмуродов Р. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Жумамуратов А. – қишлоқ хўжалиги фанлари доктори, профессор
Камолов Б. – география фанлари доктори, профессор
Миракмалов М. – география фанлари номзоди, доцент
Тожиева З. – география фанлари номзоди, доцент
Юсупова М. – архитектура фанлари доктори, профессор
Аскарров Ш. – архитектура фанлари доктори, профессор
Назарова Д. – архитектура фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

Филология фанлари

XABIBULLAYEVA Gavharxon Nosirjon qizi

“Namangan international school” Uychi filiali,

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8018615>

JADID DRAMALARIDA QO‘LLANILGAN IBORALAR

ANNOTATSIYA

Maqolada iboralarning dramalarda qo‘llanishiga e‘tibor qaratilgan, iboralarni tasniflangan, dramalardan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ibora, xarakter, ichki kechinma, o‘zbekona fe‘l-atvor, “qo‘y” obrazi, milliy madaniyat.

ХАБИБУЛЛАЕВА Гавхархан Насирджановна

“Наманганская международная школа ” Уйчинский филиал,

учитель родного языка и литературы

PHRASES USED IN JADID DRAMAS

ANNOTATION

The article focuses on the use of phrases in dramas, classifying phrases and giving examples from dramas.

Keywords: phrase, character, inner supplication, Uzbek character, image of “sheep”, national culture.

КНАБИУЛЛАЕВА Гавхархан Назиржановна

“Namangan international school ” Uychi branch,

teacher of mother tongue and literature

ФРАЗЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ДРАМАХ ДЖАДИДОВ

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена использованию выражений в драмах классифицирует выражения и приводит примеры из драм.

Ключевые слова: фраза, персонаж внутреннее переживание, узбекский характер, образ «овца» национальная культура.

Ibora yirik til birligi bo‘lib, kamida ikkita mustaqil so‘zdan (leksemadan) tarkib topadi. Tarkibli morfemaning, leksemaning ma‘nosi odatda uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma‘nolarning yig‘indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma‘nosi asosida butunning ma‘nosi tushuniladi [1, B.4].

Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko‘zi o‘ngida aniq va to‘la gavdalandirishda frazeologik iboralarning o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir. Yozuvchilar, odatda, tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qo‘llash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab o‘zgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi ma‘no nozikliklari bilan to‘yinib boradi. Xalq iboralari tili qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma‘no talqini berishning yo‘llari juda xilma-xildir.

Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo‘ldoshev tomonidan keng o‘rganilgan. Badiiy asarda qo‘llanilgan iboralarni o‘rganishda bir asar doirasidagi frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon bo‘ladi. Hamza asarlarida uchraydigan obrazlar nafaqat xalqona xarakter-xususiyati, balki tili bilan ham ajralib turadi.

Hamza o‘zi yaratgan obrazlar tilida imkon qadar xalqona iboralarni qo‘llashga uringan. Hamza „Boy ila xizmatchi“, „Tuhmatchilar jazosi“, „Jahon sarmoyasining oxirgi kuni“, „Loshmon fojiasi“, „El quzg‘unlari“ kabi sahna asarlarida fikrni sodda va ravon ifodalash uchun yuksak g‘oyaga ega bo‘lgan maqollari va iboralarni qo‘llashga uringanligi kuzatiladi. Iboralarni shartli to‘rt guruhda o‘rganib chiqdim:

1. Insonning xarakteri bilan bog‘liq iboralar.
2. Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq iboralar.
3. Ichki kechinmalar bilan bog‘liq iboralar.
4. Harakatni ifodalovchi iboralar

Insonning xarakterini ifodalovchi iboralarda milliy mentalitetimizga xos xususiyatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Qizi bo‘lsa qo‘y og‘zidan cho‘p olmog‘on, yuvvosh, muloyim, besh mahal namozni kanda qilmaydurg‘on juda yaxshi bola [2, B.159].

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan – nihoyat darajada beozor, mo‘min [1, B.295].

O‘zbeklarga xos yuvoshlik, o‘zbekona fe‘l-atvor ushbu iborada o‘z aksini topgan. Bu beozorlik *qo‘y* obrazi orqali berilgan. Bir xalq yoki millat hayotida muhim hisoblanib, ijobiy baholangan hayvon ikkinchi bir xalqda o‘zining salbiy bahosiga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, sigir hindlar uchun muqaddas, hatto totem darajasiga ko‘tarilgan hayvon, bo‘ri ham turkiy xalqlar uchun totem hisoblangan. Yoki *qo‘y* o‘zining yuvoshligi, beziyonligi bilan o‘zbeklarda ijobiy baholansa, u ruslarda salbiy ma‘no ifodalaydi.

So‘zlovchining subyektiv munosabatidan kelib chiqqan holda ayni bir so‘z yoki ibora turli nutqiy jarayonda ijobiy yoki salbiy ma‘noda qo‘llanish mumkin. Masalan, *qo‘y* leksemasining ma‘nosi o‘zbek tilidagi *qo‘yday yuvosh*, *qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan*, *qo‘yday beziyon* kabi ko‘pgina birikma va iboralar tarkibida «yuvosh» semasi bilan ijobiy mazmuni ifodalasa, ba‘zi nutqiy sharoitlarda uning xuddi shu semasi kesatig‘i, haqorat ma‘nolarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Shunisi aniqki, har bir til vakili o‘sha madaniyat vakili ham hisoblanadi, demak, til belgilari madaniyat belgilari vazifalarini ham bajarish salohiyatiga ega va shu sababli madaniyatning asosiy tamoyillarini talqin qilish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi. Aynan ana shu xususiyati bilan til o‘z vakillarining madaniy-milliy mentalitetini ham mujassamlashtiradi.

Insonning xarakteri bilan bog‘liq iboralar insonning o‘ziga xos xususiyatlarini obrazli ifodalaydi hamda nutqda yuzga chiqish asosida fikr, ma’no kuchayadi:

Po‘lat. Barakalla, juda yaxshi qilibdir. Tez borib ayt: hali bayroq ko‘tarmay tursinlar. Kerak bo‘lsa, o‘zim buyuraman. (Cholga.) Yo‘lchibekning ancha esi bor. Lekin qo‘li yuqorn bo‘lib turgan vaqtida... (birdan choparga) Nimaga qarab turibsan? Bor, tez! [3, B.284].

Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq iboralar:

*Jadid dramalarida sahna asari bo‘lganligi uchun tomoshabinlar e‘tiborini tortish, ularda sezilarli taassurot qoldirish maqsadida juda ko‘plab qo‘llangan. Masalan, Jamol. Bolam, qaydan bilay, menga o‘sha kuni bir qizni ko‘rsatuvdilar. Ko‘zimga bejirimgina, bejirimgina, chiroylikkina, to‘tidakkina, **istarasi issiqgina** ko‘ringan edi.*

1. Ichki kechinmalar bilan bog‘liq iboralar:

- *Qosimjon. Bunday qilib meni siqmang! Jahl ustida og‘zimdan biror yomon so‘z chiqib ketadi! Ul vaqtda **ko‘nglingiz og‘riydi**, qo‘yung, ertalarga so‘zlashurmiz. (Ketmoqchi bo‘lar.) F o t i m a. Xo‘p, mayli. Bo‘lmagan narsaga o‘zingizni siqib yursangiz, oxiri chiqib uyalib qolasiz. Chunki bu to‘g‘rida men gunohkor emasman. Vaqti ila oqibati sizga ochiq ravishda ma‘lum bo‘lib qolar. Ul vaqtda tuhmatchilar jazolarini ko‘rarlar [4, B.90].*

- *Kamol: O‘rtoq, sen ham meni yaramga **tuz sepma**. Oh, ul meni sevdigim Maryam... unda hech gunoh yo‘q. Ul farishta, ul adiba, ul shoira. [2, B.166].*

- *Salomat. Bu gapni yaxshi ochding. Men ham ko‘rub edim. Shu vaqtgacha gapurgani qo‘rqub, **damim ichimda edi** [2, B.175].*

- *Maryam. Mencha, o‘limga hozirlanmoq kerak. Bu totsiz, mazasiz, lazzatsiz, vafosiz dunyoda turuvdan zig‘ircha foyda yo‘q. foyda umidi ham yo‘q. bu jaholatga cho‘mg‘on insonlarning qilg‘on mantiqsiz ishlarini ko‘rsangiz, **hushingiz boshingizdan uchub ketadur** [2, B.174].*

- *Ahmad. Qo‘ysang-chi, o‘rtoq. Munday poyma-poy gapirib, odamni **ta‘bini tirriq qilma**, to‘g‘risini so‘yla [2, B.165].*

- *Kamol. Oh... **tanasi boshqa dard bilmas**, derlar. To‘g‘ri so‘z dur. Luqmon tirilub kelsa ham meni dardimga da‘vo topolmas. Bu jaholat, xayolot bandalari o‘zlari bekorga ovvora bo‘lub, meni o‘runsiz yerga injitmoqdan boshqa natija chiqara olmaslar [2, B.181].*

- *Xudo urganni payg‘ambar hassasi bilan bilan turtar, deb bunisi ham ho‘l novda bilan savalab ketdi. Xayr, bunisiga ham shukur. Yomondan yo qoch qutul, yo ton qutul. Bu dard bilmagan bedavolardan vaqtida qochib qutula olmadim. O‘z jonimga **jabr qildim**. Endi tonib qutulish kerak. O‘lub qutulish kerak [2, B.179].*

- *Yorqin. Ishimni janoblariga aytsam yana ham yaxshi bo‘ladir! Men o‘z uyimizdan bir kechaning ichida yo‘q bo‘lib qoldim. Bu xabar qanday bo‘lsa ham shu uch to‘rt kunning orasida otamning **qulog‘iga yetadir**. Otam tajang odam, urushni tashlab qaytib keladir. «Mening yo‘g‘imda uyimni buzib ketar ekanlar-da, shunga qarshi hech narsa qila olmagan xonga xizmat qildimmi?» deb butun saroyini buzib yuboradir. Shu uchun otamga bir xat yozib yuboraman; «uyda men, sog‘-salomatman» deb yozsam, unng ko‘ngli tinch bo‘ladir [3, B.45].*

- *Sirdonlarning ishini tugataylik, qizning **ko‘ngil joyiga tushsin**. Bo‘ronboy shu choqqacha kelmadingiz-ku? (Bo‘ronboy kiradir-da, yiroqda qo‘l qovushtirib turadi, ko‘zi uyning ziynatida.) Kel, Bo‘ronboy! Salom berishni ham bilmaysan. Bo‘ronboy (yana ko‘zi uyda). Burungi mehmonxona emasman shu, begim? Juda boshqacha qilib yuborib siz-ku! [3, B.259].*

- *Qorovul. Hamma yurt Po‘lat botirning tarafida-ku, shunday bo‘lsa ham O‘lmas botirning **oshig‘i olchi kelayotibdir**, deyдилar. Bilmadik, haq ham shunday xor bo‘larmi ekan? Chol. Hah-ku, hech vaqtda xor bo‘lmaydi-ya, bir kun yana yuzaga chiqadi-ya. Lekin, bolam, Po‘lat botirning uzugi yo‘qolganidan beri **ko‘nglim qora**, o‘sha yo‘qolishdan folibad qilaman [3, B.248].*

Harakatni ifodalovchi iboralar:

- *Ul Salim quruqning qizi Maryamni olmoqchi. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, ul bizni tengizmi? Bu o‘zboshimcha jiyaningiz meni butun obro‘yimni yer bilan **yakson qilmoqchi**... [2, B.160].*

- *Jamol. Xola, turing, **imi-dumingizni qila bering**. Bolani gapiga quloq solmang. Muni o‘zini **miyasi aynib qolgan** [2, B.178].*

- *Xonzoda (jerkib)* . *Gapirma, o'shani! Uning oti ni ham og'zingga olma!* Xizmatkor. *Gapning sirasini aytdim-da. (Jim.) Menga qarang, yaxshi yigit, Po'latning bu kecha shu yerga chiqishi aniq. Men odam qo'shib bildim. Bu kun qayin otasi ham...* [4, B.296].

- *Qozi*. *Shu bugun bilan uch martaba chaqirib, men etmagan tadbir-siyosat qolmadi, hatto «Boyning shu so'zlariga qaysarlik qilsang, yigirma yillik xizmatning kuyib ketadi. Shu xotinni boyni o'zi olib beradi, sandan bir pul sarf bo'lgani yo'q — besh-olti ming so'm qarzdor bo'lding, qiyomatg'acha ishlang ham bu qarzlarni uzolmaysan. Urta ichida boyning achchig'larini keltirsang, o'zingni bir baloga taqiysan. Uzingga qiyin bo'ladi. Undan ko'ra, shu xotinni bahridan o't* [4, B.68].

- *Ahmadjon*. *Mana shuning uchun man sizlarga takror aytamanki, zinhor vatanga salomat qaytkondan keyin o'zlarinigiz naqadar xo'rliklarga qolsangiz-da, hech bir kishiga quloq bermay, bolalaringizni o'qutingiz da, o'quting! Johil mullalarning: «Kofir bo'ladi, fa lon bo'ladi», — degan quruq falsafalariga quloq osmay, qizlaringizgacha hatto ruschagacha o'quting!* [4, B.121].

- *Yorqin (yana qarab kelib)*. *Kal, nimaga, birgina bekning o'zi to'rt bechoraning boshini yeydir-da, uning boshini hech kim yemaydir?*

Kal. *Kim yesin? Shayton yesinmi?*

Yorqin. *Agar bir kishi, ozroq yordam qilsa, uning boshini men yer edim! Sen ham qutilar eding, polvon bilan xola ham...* [3, B.248].

- *Kal*. *Uni qo'ying, buni qo'ying, poshsham, mana shu og'ir kunlarga sizni solib qo'ygan men bo'lsam, sizni qutqarib olaturgan ham o'zim bo'lay!* **Dunyoga kelib** men ham bir yaxshi ish qilay [3, B.250].

- *Bek*. *Qilmaydir deb bo'lmaydir. Uning og'zi bo'sh, har narsani qiziqchilikka olib gapira beradir. Bor endi, chiq, ishingga puxta bo'l!* (*Kulib*). *Bir kechalik qo'riqchisan, yaxshi qo'ri. Bergan non-namagimni halol qil!* (*Polvon qulluq qilib chiqmoqchi bo'ladir*). *Ha, aytkancha: Bo'ronboyni menga chaqirib yubor, ehtiyot bo'l, u sirdan ogoh emas!* **Og'zingdan bir ogiz gap qochmasin, ha!** (*Polvon "xo'p" deb chiqadir*) [3, B.257].

- *Yorqin*. *Qo'ying xolajon, bir hovuch, bir to'da «kattalar» deb har qadam, joyni go'r kavlab yurish yaxshimi? Po'latning o'sha kechasi aytgan gaplari hali ham qulog'indan ketmaydir. O'sha topda o'likday qotib, dam chiqarolmay qolgan otam... Yana beva-bechorani qon-qora qaqshatqali ketibdir! Voy, voy... (Ko'zlarini qo'li bilan to'sib). Po'latning qo'lidagi suyaklar-e!.. Kechalari tushlarimda ham o'shalarni ko'rib chiqaman... Po'lat bir ish qildi, bir gaplarni aytdiki, odam bo'lsa chidab turolmaydir. Axir otamning o'zi ham o'likday qotib qolgani deyma-a? Po'lat o't bo'lib yonib ketibdur, hadeb gapiradir, gapiradir, xolos...* [3, B.250].

- *Po'lat (quromoslik bilan, jiddiy)*. *Qumri! Sen nimaga meni deb yurasan? Senga boshda aytib bermadim miki, «Sen mendan umidingni uz, yosh qizsan o'zingni qiynama!» deb? Shunda ham anglamadingmi? Qumri (xayol bilan). Anglamadim... Angladim... yo'q, yo'q, anglamadim...* [3, B.201].

- *Po'lat (og'ir)*. *Qiz, hiz, esingni yo'qotma!* (*In jiqlanib*.) *Menga o'xshab jinni bo'lma, esingdan ajrama!* *Men, bir emas, ikki-uch dardning o'rtasida qolib» es-u hushimdan ajrashga yaqinlashdim. Sen unday bo'lma! Mening sevgim to'g'risida og'zingdan bir og'iz so'z chiqib, hech bir yerda, hech bir jonivorning qulog'iga kirmasin. Agar kirgunday bo'lsa, bir ozroq eshitilguday bo'lsa bormi, (g'ijinib) «g'irt!» bo'g'aman-u... o'ldiraman. Bilasanmi?* [3, B.202].

- *Maryam*. *Oh suyuklum Kamolni bir vahshiy qizga qo'shib qo'ygandek, erta-indin meni ham, sizni ham bir hokuz polvon bilan kurashturadurlar. Undan ko'ra esing borida etagingni yop, degondek hozirdan chorasini ko'rish kerak* [2, B.174].

Ushbu iborani biror ishni vaqtida bajar semasi asosida tushunamiz, tarkibida etak morfemasi etnografizm sifatida ishtirok etgan.

Har bir tilda shu tilda so'zlashuvchi millatning mentaliteti (inglizcha – mentalite-biron-bir xalqqa xos tafakkur tarzi) aks etib turadi. Millat o'z tili orqali o'z kechinmalarini ifodalaydi, milliy madaniyatni namoyon qiladi, bu kechinmalar uning tafakkurida va u orqali so'zlayotgan tilida aks etmasdan qolmaydi.

Har bir ibora xalq donishmandligining hukmi, ko'p yillik hayotiy tajribalarning umumlashma xulosalaridir. Ular hayotni, haqiqatni ifodalaydi. Ularning tilda paydo bo'lishi ularni yaratgan, ijod qilgan xalqning tarixi bilan belgilanadi. "Ularning ko'pchiligi juda qadim zamonlarda yaratilgan va ular o'zini ijod qilgan xalq bilan birga yashab kelmoqda. Har qanday hikmatli ibora ham ommalashib ketavermaydi, faqat jamiyatdagi ko'pchilikning orzu-umidini, istagini, hayoti va fikrini aks ettirgan hikmatli iboralargina ommalashadi, avloddan-avlodga o'tadi, asrlar osha yashaydi..." [5].

Til va madaniyat mushtarakligi masalasida iboralarning o'rni ham alohida ahamiyat kasb etib turadi. Alohida tillardagi iboralar o'zida uning yaratuvchisi hisoblangan xalqning barcha milliy xususiyatlarini: diniy qarashlari, qadriyat va an'analari, madaniy-ma'naviy qarashlari majmuini aks ettirgan bo'ladi. Har bir ibora yuzaga kelar ekan, uning xalq kundalik hayotida tutgan o'rni, insonga foydalilik darajasi, xalq tomonidan unga berilgan salbiy yoki ijobiy bahosi kabi jihatlar asosida shakllanadi. Shu bois iboralar turli millat tilida o'zining turlicha mazmun mundarijasiga ega bo'ladi.

Bir til vakillari biror hodisa yoki holatni salbiy yoki ijobiy baholar ekan, albatta, unda o'zlarining turmush tarzi, qarashlari, madaniyati ham aks etib turadi. Borliqning tildagi aksi esa turli tillarda turlicha bo'lib, u til va xalqning o'ziga xos mental belgilariga bog'liq bo'ladi. Har bir shaxs borliqni tilda aks ettirar ekan, nafaqat tilning ichki lisoniy imkoniyatlariga tayanadi, balki uning madaniyat, e'tiqod, qadriyat va urf-odatlar bilan uzviy bog'langan tashqi omillariga ham murojaat qiladi.

ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES

1. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent, O‘qituvchi, 1978.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar, 2-jild. Biz va siz. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
3. Cho‘lpon. Yorqinoy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1991. – B. 284.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To‘la asarlar to‘plami, uchinchi tom, dramalar. – Toshkent: Fan, 1988.
5. Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 1984.

ISSN: 2181-4058
DOI Journal 10.56017/2181-4058

ТАДҚИҚОТ ВА ИННОВАЦИЯЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 6-СОН

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ
ТОМ-I, НОМЕР-6

JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS
VOLUME-I, ISSUE-6

«Тадқиқот ва инновациялар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054912-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz